



YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 7 (1333), 2025-yil 11-yanvar, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan 13-16-yanvar kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Tashrif doirasida Abu-Dabi va Dubay shaharlarida uchrashuv va tadbirlar o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari Amirliklar poytaxtida Prezident Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon bilan ikki tomonlama muzokaralar o‘tkazadi, mamlakatning yetakchi davlat tashkilotlari, kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashadi, shuningdek, “Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi” xalqaro sammitida ishtirok etadi.

Dubay shahrida Birlashgan Arab Amirliklari vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay Amiri Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum bilan uchrashuv o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Tashrif kun tartibidan O‘zbekiston — BAA do‘stlik va ko‘p qirrali sheriklik

munosabatlarini yanada mustahkamlash, investitsiyalar, “yashil” energetika, infratuzilma, raqamlashtirish, sun‘iy intellekt, innovatsion rivojlanish, turizm va boshqa ko‘plab ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari o‘rin olgan. Madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida ikki davlat o‘rtasidagi keng ko‘lamli hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan salmoqli kelishuvlar to‘plami qabul qilinishi kutilmoqda.

O‘zA

Nuqtayi nazar

SUN‘IY INTELLEKT

INSONIYAT UCHUN FOYDALIMI YOKI XATARLI?

Zamon shiddat bilan o‘zgarib, jahonda har bir sohaga sun‘iy intellekt, raqamli texnologiyalar kirib kelyapti. Bu borada yurtimizda ham qator loyihalar boshlangan. Misol uchun, “MyID” va “UzFace” dasturlari 70 dan ortiq tashkilot, bank, elektron savdo maydonchasi va to‘lov tizimida joriy qilinib, 10 million foydalanuvchini masofaviy biometrik identifikatsiya qilish imkoniyati yaratildi. “O‘zbekkosmos” sun‘iy intellektli qo‘llab, yer qariidan noqonuniy foydalanish va ruqsatsiz qurilish bilan bog‘liq 43 mingga yaqin holatni aniqladi.

Mamlakatimizda sun‘iy intellektidan ta‘lim, media, transport, sog‘liqni saqlash, sud va boshqa ko‘plab sohalarda foydalanilmoqda. Masalan, sun‘iy intellektning kirib kelishi tibbiyot uchun bir qancha qulayliklar tug‘dirmoqda. Tizimda shaxsiylashtirish, avtomatlashtirish, diagnostika aniqligini oshirish va boshqa yo‘nalishlarda qo‘l kelmoqda. Multispiral kompyuter tomografiyasi (MSKT) ma‘lumotlari asosida protezlash texnologiyasini ishlab chiqish va joriy etish, o‘tkir miokard infarktidan keyin 12 oylik reabilitatsiya dasturini shaxsiylashtirish va nazorat qilish uchun onlayn platforma ishlab chiqish kabi loyihalar bo‘yicha ham izlanishlar olib borilyapti. Shuningdek, jigar sirrozi va

gepatokarsinomani erta tashxislashda “aqlli” tizimni ishlab chiqish singari loyihalar bor. Albatta, sun‘iy intellekt haqiqiy shifokorning o‘rnini egallamaydi va bu haqda o‘zi ham aytadi. U kasalingizni aniqlab, davolanish uchun shifokorga murojaat qilishni tavsiya etadi. O‘zbekistonda dorilar bo‘yicha og‘riqli masalalar bo‘ldi. Sun‘iy intellekt bazasida ishlaydigan shunday dasturlar borki, siz dorini rasimga olib, dasturga yuklasangiz, dori O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tganmi, undan foydalanish mumkinmi yoki yo‘qligini aniqlab beradi. Bu, albatta, yomon oqibatlardan saqlab qolishi mumkin.

Bundan tashqari, geoaxborot tizimlari va sun‘iy yo‘ldosh tasvirlaridan foydalangan holda O‘zbekiston o‘rmonlari holatini

samarali monitoring qilish uchun innovatsion dasturiy mahsulotni ishlab chiqish va bosqichma-bosqich joriy etish ko‘zda tutilgan. Videokuzatuv kameralari asosida yong‘inni tezkor aniqlab, xabar berish tizimi ham yaratilmoqda. Biz bilgan GPS, radar, turniket, ko‘cha yoritqichlari kabi vositalar sun‘iy intellekt elementlari bilan boyitilyapti. Qolaversa, 2020-yildan aholini ijtimoiy himoya qilishni moddiy qo‘llab-quvvatlash va tizimga AKTni joriy qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. So‘nggi yillarda axborotlashtirish va ilg‘or texnologiyalarni turli sohalarda tatbiq etish borasidagi choratadbirlar natijasida O‘zbekistonda AKT va sun‘iy intellekt sohasida o‘ziga xos salohiyat asoslari yaratildi. Bu borada tashkilotlar,

AKT bo‘yicha ilmiy-tadqiqot markazlari, oliy ta‘lim muassasalari va ularning iqtidorli bitiruvchilari hamda texnoparklar, xususiylar sektordagi qator tashkilotlar faoliyatini alohida e‘tirof etish mumkin. Shuningdek, sun‘iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalari yo‘nalishida Farg‘ona shahridagi maktablarda “Aqlli maktab” dasturi, Andijon viloyatida ekin maydonlari holatini baholovchi “Monterra” onlayn platformasi joriy etilgan bo‘lsa, Toshkent viloyati Nurafshon shahrida “Aqlli shahar”, Toshkent shahrida esa “Xavfsiz shahar” va “Raqamli Toshkent” loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Davomi 3-beta

Inson qadri uchun

XALQQA SADOQAT BILAN KIZMAT QILISH DAVRI


Ko‘z ochib-yumguncha 2025-yilning ilk oyi ham o‘tib bormoqda. Lahzalar, kunlar shiddati turmush tarzimizga, davlat va jamiyat hayotiga, islohotlar silsilasiga ko‘chgan. Yangi davr va yangilanayotgan dunyo bilan hamqadam bo‘lish, ulkan reja-maqсадlarga ulgurish ongu shuurimizda, qarashlarimizda, turmush tarzimizda o‘z in‘ikosini topmoqda. Tabiiyki, zimmamizdagi mas‘uliyat, yon-atrofimizdagi o‘zgarishlarga daxldorlik hissi ham karrasiga ortgan.

Davomi 2-beta



14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

HAR BIRIMIZ AMALDA VATAN HIMOYACHISI BO‘LAVLIK!



Faxru iftixorimiz — O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganiga 33 yil to‘ldi!

Ushbu qutlug‘ sanani Vatan mustaqilligi, sarhadlarimiz daxsizligining qalqoni bo‘lgan Milliy armiyamiz xalq bilan birdamlik ruhida, ko‘tarinki kayfiyatda qarshi olayotgani kishini quvontiradi. Shu munosabat bilan gazetamizning qo‘sh sahifasini milliy armiyamiz qudrati, aholi, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratdik.

Zero, inson ulg‘ayib borgani sari uning zimmasidagi burchlar salmog‘i ham oshib boradi. Agar o‘sha burchlarni bitta so‘z bilan ifodalash kerak bo‘lsa, bu, shubhasiz, VATANPARVARLIKdir! Chunki yurtini sevgan, har qanday vaziyatda ham uni himoya qila oladigan inson komil shaxs bo‘ladi. U oilasini yaxshi ko‘radi, halol mehnat qilib, yurtdoshlariga mehribon do‘st bo‘ladi. Shu bois, biz vatan himoyachilariga doim havas bilan qaraymiz.

O‘rni kelganda ta‘kidlash kerakki, hozirgi davrda komil insonni tarbiyalash oson emas. Chunki global dunyoda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib bormoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan hozirgiday o‘ta murakkab geosiyosiy sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 12-yanvar kuni o‘tkazgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqida “Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo‘lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur”, deya ta‘kidlagan edi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda aholi, ayniqsa, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik

ruhini shakllantirishga qaratilgan katta islohotlar amalga oshirildi. Oddiy misol, joylarda harbiylarning ko‘rgazmali chiqishlari muttasil tashkil etilishi yo‘lga qo‘yildi. Bunday uchrashuvlarning mahallalarda o‘tkazilishi sabab maktab o‘quvchilari ham bemalol harbiylar bilan suhbatlashib, o‘zini qiziqirgan savollarga javob olyapti, esdalik uchun suratga tushmoqda. Ana shu suhbatlarda ular harbiylarning begona emas, akasi yoki amakisi kabi mehribon, ochiqko‘ngil inson ekanidan mamnun bo‘lishi tabiiy.

Bu juda oddiy holat bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Lekin aynan shunday uchrashuv, suhbatlar yoshlar qalbidagi harbiylar, armiyamiz salohiyatiga nisbatan faxr tuyg‘usini uyg‘otayotgani ayni haqiqat. Bundan tashqari, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini

mustahkamlash maqsadida media makonda ham harbiy-vatanparvarlik ruhidagi ishlar olib borilyapti.

Yurtimizda Qurolli Kuchlarimizni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika bilan ta‘minlash, ularning jangovar va ma‘naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar muttasil amalga oshirilmoqda. Bunday o‘zgarishlar, albatta, quvonarli natijalarga, xalqaro darajadagi e‘tiroflarga sabab bo‘layotganidan faxrlanamiz!



Lekin bir jihatni unutmaslik lozimki, tinchlikni saqlash faqat harbiylarning ishi emas. Yurt himoyasi har bir O‘zbekiston fuqarosining muqaddas insoniy burchidir. Xalqimiz ardog‘idagi shaxslarning ana shunday insoniy burchimiz va uning shakllanishi, milliy armiyamizning sharafligi yo‘li haqidagi fikr-mulohazalari sizlarni befarq qoldirmaydi deb umid qilamiz.

Tahririyat

4-5-betlarga qarang

